



O'ZBEKISTON SHAROITIDA TUPROQA UYA QURUVCHI QUSHLARNING EKOLOGIK TAVSIFI

Faxriddin XOLBOYEV,

O'zbekiston Milliy universiteti Zoologiya kafedrasi professori

Botirali SHODIYEV,

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati

Hayvonot dunyosi, jumladan qushlarning biologik xilma-xilligini va ular populyasiyalarining barqarorligini saqlash hamda ulardan oqilona foydalanish masalasiga dolzarb vazifalardan biri sifatida qaraladi. Xalqaro miqyosda mazkur masalaga alohida e'tibor qaratilishiga qaramasdan, oxirgi yillarda ayrim turlarning keskin kamayib ketishi yoki ularni muhofaza qilishning turli maqomlarini egallashi qayd etilmoqda [1,2]. Shunday turlar qatoriga ko'kqarg'asimonlar (*Coraciiformes*) turkumiga mansub bo'lgan va O'zbekistonda keng tarqalgan ko'k qarg'a (*Coracias garrulus*), ko'ktarg'oq (*Alcedo atthis*), tillarang kurkunak (*Merops apiaster*), ko'k kurkunak (*Merops persicus*) kabi turlarni kiritish mumkin. Mazkur turlarining tabiatdagi va xo'jalikdagi ahamiyati O'zbekiston sharoitida yetarli darajada o'rganilmagan. Xorijiy davlatlarda esa bu yo'nalishda bir qator ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, Liviyada ko'kqarg'asimonlar (*Coraciiformes*) turkumiga mansub turlarning bioekologik xususiyatlari, tilla rang kurkunak - *Merops apiaster* ning asalari (*Apis mellifera*) bilan oziqlanishidagi hatti-harakatlari H. M. Alfallah tomonidan o'rganilgan va unda ushbu tur oзуқасининг o'rtacha 90,8% ni asalarilar, 9,2% qattiq qanotlilar tashkil etishi aniqlangan [5]. P.Heneberg Markaziy Evropada yerga in qazib uya quruvchi qush turlarining (qirg'oq qaldirg'ochi (*Riparia riparia*), tillarang kurkunak (*Merops apiaster*), ko'ktarg'oq (*Alcedo atthis*) tuproq tarkibiga ta'sir ko'rsatishini o'rgangan va natijada tuproqning qattiqligi yoki juda yumshoqligi ushbu turlarning uya qurishini cheklovchi muhim omil bo'lishini ta'kidlagan. H. Hoi va



boshqalar o'z tadqiqotlarida tillarang kurkunak (*M. apiaster*) ning ko'payish samaradorligini uya koloniyasini kattaligiga bog'liqligini o'rgangan va uning xususiyatlarini tahlil qilgan. S. M. Kossenko va boshqalar *M. apiaster* hamda *M. persicus* larning uya qurish koloniyalarini o'rgangan holda aralash koloniyalarda mazkur turlarning o'zaro raqobatlashishi, uning sabablari va oqibatlarini aniqlashga harakat qilishgan [8]. Xuddi shu kabi Coraciiformes turkumiga mansub turlarning biologik va ekologik xususiyatlari va ahamiyatiga tegishli bir qancha tadqiqotlar olib borilgan .

Tadqiqotlar 2024 yillarda O'zbekistonning Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Buxoro, Surxondaryo viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida olib borildi. Qushlarning uchrash xususiyatlari, tarqalishi, soni va son dinamikasi, ko'payishi, oziqlanishi va ahamiyatiga tegishli materiallar tabiiy landshaftlar, agrosenozlar, aholi yashash joylaridan, asalarichilik xo'jaliklari joylashgan hududlardan ba qushlarning uya qurish stasiyalaridan yig'ildi. Qo'shimcha materiallar sifatida O'zbekiston muzeylaridagi Ornitologik kolleksiya fondlarida saqlanayotgan ko'kqarg'asimonlar (Coraciiformes) turkumi nusxalari o'rganildi.

Ko'kqarg'asimonlarning ekologik xususiyatlarini juda o'xshashligi ularni o'xshash yashash muhitlarida tarqalishiga sabab bo'ladi. Ko'kqarg'asimonlarning ekologik xususiyatlarini qiyoslash orqali ularning uchrash xarakteri, yashash muhitlari bo'yicha tarqalishi, uya qurish joylari, ozuqaga erishish jarayonlaridagi xatti-harakatlari o'zaro o'xshashligi aniqlandi.

Kurkunaklarning har ikkala turida turkumning boshqa turlaridan farq qilib jo'jalarning tovon bo'g'imi ostida yo'g'on "qadoq" hosil bo'lishi kuzatildi. Voyaga etganlarida esa bunday qadoqlarning uchramasligi aniqlandi. Bunday qadoq jo'jalarning uyada oldinga va orqaga harakatlanishida qulaylik yaratadi. Bunday moslashuvni tuproqda uya qazib uyalovchi qushlarga xos moslashuvlardan biri sifatida baholandi.

O'zbekiston sharoitida Coraciiformes turkumiga mansub turlarning ekologik xususiyatlarini, reproduktiv siklini, ozuqlanishini va ahamiyatini o'rganish va

qiyosiy tahlil qilish orqali ularni muhofaza qilish va xatti-harakatlarini boshqarish imkoniyatlari yaratiladi.

ADABIYOTLAR

1.Shodiyeva F. Current status of birds of the genus of beam (*Merops*) in Uzbekistan // International scientific research journal, 2022,- Vol. 3, Iss. 6. ISSN: 2776-0979, pp.745-750.

2. Shodieva F.O., Kholboev F.R. Distribution, ecology and significance of the genus beeter (*Merops*) in Uzbekistan // International Journal of Research Publications (IJRP.ORG), 2021,-Vol. 84, Iss. 1. ISSN: 2708-3578, pp. 209-214.

3. Shodiyeva F., Xolboyev F. Reproduction ecology of the genus *Merops* in Uzbekistan // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 2022,- Vol. 12, Iss.06. ISSN: 2249-7137, pp. 67-73.

4. Вилков Е.В. Особенности экологии щурок (*Merops apiaster*, *M. superciliosus*) в Дагестане, как районе интенсивных миграций // Юг России: экология, развитие. – Том 11, № 3, 2016. – С. 90-105.

5. Alfallah, H. M., Alfituri M. and M. Hmuda. The impact of Bee eater *Merops apiaster* on the behaviorof honey bee *Apis mellifera* L. during foraging // Mansoura Journal of Plant Protection and Pathology. –1(12): 2010. –P.1023-1034.

